

Turkiston milliy teatrida Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatining ma'naviy hayotida tutgan o'rni

Dilafro'z Nuriddinovna Oblayeva
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkistonda milliy jadid teatrlarining paydo bo'lishi haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatining ahamiyati batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, jadidchilik, Mahmudxo'ja Behbudiy, Padarkush, ta'lim va tarbiya, chor-Rossiyasi.

The role of Mahmudkhoja Behbudi's activity in the spiritual life of the Turkestan national theater

Dilafroz Nuriddinovna Oblayeva
Uzbekistan University of Journalism and Mass Communications

Abstract: This article discusses the emergence of national Jadid theaters in Turkestan. The importance of Mahmudkhoja Behbudi's activity is also described in detail.

Keywords: Turkestan, Jadidism, Mahmudkhoja Behbudi, Padarkush, education and upbringing, Tsarist Russia.

O'zbek teatri jadidchilik harakatining mevasi - ma'rifiy teatr sifatida tug'ilgan edi. Birinchi o'zbek ijodiy jamoasi bo'lmish "Turon" truppasining "Nizom" ida teatrning bosh maqsadi:

a) aholi o'rtasida sahna ishlari va xayriyaga jiddiy munosabatni rivojlantirish;

b) xalq uchun spektakl ko'rsatish, unga sog'lom tomosha berish, deb uqtirilgan edi. Sahna ishini tashkil etgan va uni xalq orasida keng yoygan Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy singari atoqli ma'rifatparvarning sa'y-harakati bilan bu teatr tez orada xalq madaniy hayotining tarkibiy qismiga aylandi¹.

Sanoqli bir necha yil davomida o'ttizga yaqin pyesa yaratildi, aktyorlik va rejissyorlik san'atining tub tamoyillariga asos solindi.

¹ Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to'ldirilgan 2-nashri. To'plovchi: B.Qosimov. Ma'naviyat, 1999. 174-bet.

Jadid teatri va dramaturgiyasining muhim xususiyati - uning oila hayotini tasvirlash bilan inson qalbiga kirib borish, uni ma'rifiy tarbiyalash va shu orqali jamiyat hayotida avj olib borayotgan milliy uyg'onish g'oyalarini tarannum etishda ko'ringan edi.

XX asr o'zbek teatri madaniyatimiz tarixida ro'y bergan noyob hodisalardandir. 1914-yili Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" pyesasi bilan o'z pardasini ochgan o'zbek teatri ikki-uch o'n yillik ichida har bir xalq g'ururlansa arzigulik teatr sifatida maydonga chiqdi².

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida 20-yillarda mahalliy matbuotda Sadridin Ayniy, hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e'lon qilingan. Keyingi yillarda, xususan, mustaqillikka erishilgandan so'ng jadidlar faoliyatini o'rganishga qiziqish kuchayishi bilan Behbudiy ham qayta kashf etila boshlandi. Behbudiy tarjimaiy holini yoritishda hoji Muinning 1922-23-yillarda o'zi muharrirlik qilgan "Mehnatkashlar tovushi" (1922), "Zarafshon" (1923) gazetalarida chop etgan maqolalari muhim ahamiyatga ega.

XIX asr ikkinchi yarmida Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilganidan keyin o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot metropoliya manfaatlariga bo'ysundirildi. Asrlar davomida shakllangan boshqaruv tizimi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy ahvolga Rossiya imperiyasi, xususan, Turkiston general-gubernatorligi tomonidan ma'lum bir o'zgartirishlar kiritish amalga oshirildi³. Chunki Rossiya imperiyasi oldida o'lka aholisini turmush tarziga aralashishidan ko'ra, uning iqtisodiy imkoniyatlarini imperiya manfaatlariga xizmat qildirish muhimroq edi. Lekin buning uchun ham Turkiston xalqlari tili, madaniyati, xo'jalik yuritish an'analari, urf-odatlarini o'rganish zarur edi.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti, insoniyat tarixining porloq sahifalari ma'lum bir shaxslarning faoliyati ishlari bilan bog'liqdir. Ana shunday millat uchun qayg'urgan va kerak bo'lsa, jon fido qilgan insonlardan biri - Mahmudxo'ja Behbudiydir.

Mahmudxo'ja Behbudiy shunday kishilar sirasiga mansub bo'lib, 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Siyob volostining Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Uning shajarasi bir tomondan Ahmad Yassaviyga borib taqalsa, ikkinchi tomondan Urganch xo'jalariga borib taqaladi⁴. Mahmudxo'ja Behbudiyning bir bobosi Solihxo'ja bo'lib, ular Samarqandning obro'-e'tiborli kishilaridan hisoblangan. Qoriniyozxo'ja XVIII asrda Amir Shohmurodning buyrug'i bilan Urganchdan

² Solihov B. O'zbek teatr tarixi uchun materiallar. T.: O'zdavnnashr. 1935. 90-bet. «Jahon adabiyoti» jurnali, 2007 yil, 10-son

³ Rizaev Sh. Jadid ma'rifatchiligi va teatr. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Turkiston va Buxoro jadidchilik tarixiga chizgilar). – Davriy to'plam. – №1. – Toshkent: Universitet, 1999. – B. 199–203;

⁴ XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B. 20

Samarqandga ko‘chirilgan edi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning imom-xatiblik bilan shug‘ullangan otasi Behbudxo‘ja 1894-yilda kenja farzandi tug‘ilishidan bir oz oldin vafot etgan edi.

6-7 yoshida tog‘asi qozi Muhammadsiddiq tufayli xat-savodi chiqqandan so‘ng Mahmudxo‘ja Behbudiy XIX asrning 90-yillarida Chashmaob va Kobud volostlarida mirzoliq qilgan edi. Mana shu faoliyati natijasida Mahmudxo‘ja Behbudiyning dunyoqarashi keskin o‘zgarib, uning Sharq va G‘arb mamlakatlariga qilgan safarlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1899- 1900-yillarda Turkiya, Misr va Hijozga, 1903-1904-yillarda esa Rossiya imperiyasining Moskva, Peterburg, Nijniy Novgorod, Qozon va Ufa singari shaharlariga borib, xorijiy xalqlar hayoti bilan yaqindan tanishdi.

XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining qanot yozishida Rossiya, Turkiya va Eron inqiloblaridan tashqari, Qrim va Volgabo‘yi tatarlarining matbuoti, birinchi navbatda, Ismoilbek Gaspirinskiyning “Tarjimon” gazetasi muhim ahamiyatga molik. Matbuotning taraqqiyparvar kishilari qo‘lida qudratli qurol ekanligini sezgan Behbudiy 1901-yildan boshlab “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Osiyo”, “Tujjor” singari mahalliy hamda “Tarjimon”, “Vaqt” va “Sho‘ro” singari qardosh xalqlarning ro‘znoma va jurnallarida 200 dan ziyod maqolalarini e‘lon qildi⁵.

Ma‘lumki, Behbudiyning dunyoga mashhur qilgan asari “Padarkush” bo‘lib, mazkur tragediya janrida yozilgan asar 1911-yilda dunyo yuzini ko‘rgan edi. Lekin mana shu asar ham chop etilganidan so‘ng Rossiya imperiyasining Turkistondagi vakillari tomonidan qattiq qarshilikka uchragan edi. Bu asar birinchi o‘zbek dramasi va o‘z navbatida birinchi o‘zbek tragediyasi ham hisoblanar edi. Behbudiy 1912-yilda Borodino jangining 100 yilligi nishonlanayotgan kunlarda asarni ana shu sanaga bag‘ishlash orqali ishonchli do‘stlari yordamida matbuot ishlarining Tiflis (hozirgi Tbilisi) qo‘mitasidan ruxsatnoma olib, uni chop etish va sahnalashtirishga erishadi.

1914-yilning 15-yanvarida Samarqanddagi “Xalq uyi” da ozarbayjon rejissyori Aliasqar Asqarov sahnalashtirgan “Padarkush” ning birinchi marta namoyish etilishi o‘zbek xalqining madaniy hayotida ulkan voqea sifatida baholash mumkin. Shu kuni o‘zbek milliy teatri dunyoga keldi. Behbudiy birinchi o‘zbek dramasining muallifigina bo‘lib qolmay, uni sahnalashtirishda ikkinchi rejissyor sifatida ham ishtirok etdi. Asarda o‘qimagan bolaning padarkush (ota qotili) ga aylanish jarayoni tasvirlanar ekan, Behbudiy ilm-fanning shaxsning qanday inson bo‘lib shakllanishidagi rolini ko‘rsatib berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi⁶.

Behbudiy faoliyatining muhim bir qismini jurnalistika tashkil etadi. 1913- 1914-

⁵ XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – B. 22.

⁶ Turdiev Sh., Qoriev B. O‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi bibliografiyasi (1918–1941 yy). – Toshkent: Fan, 1967. – B. 27

yillarda "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnallarini nashr etgan adib astronomiya, arxeologiya, geografiya, etnografiya, tibbiyot, xalq xo'jaligi rang-barang mavzulardagi maqolalari bilan o'zbek ziyolilarining yangi bir avlodi yetishib chiqishiga sababchi bo'ldi. "Ma'rifatsiz millat inqirozga mahkumdir"⁷ degan uchqur so'zlarni o'ziga shior qilib olgan adib bu nashrlarning tom ma'noda o'zbek ma'rifatparvarlarining minbari bo'lib qolishi uchun tinimsiz qayg'urdi.

XX asr boshlarida hayotdagi tub o'zgarishlarga monand holda o'zbek adabiyoti va san'atiga yangi janrlar muvaffaqiyatli ravishda kirib kela boshladi. Hayot va jamiyatda mavjud bo'lgan muammolar haqida chuqur o'ylaydigan, fikr yuritadigan yozuvchilar oldida mislsiz keng imkoniyatlar ochildi. Tashqi adabiy ta'sirlar mumtoz adabiy an'analarga tayanib kelgan mualliflar oldiga xarakter, shakl, uslub va tomoshabin (kitobxon) ga munosabat borasida yangi vazifalarni qo'ya boshladi. Iste'dodli ijodorkorlarning samarali izlanishlarida novatorlik kurtaklari yuz ko'rsatdi. XX asr boshlarida Markaziy Osiyodagi turkiy adabiyot aruz vazniga tayangan bo'lsa, asr so'nggida jahon adabiyotiga xos bo'lgan yuksak adabiy shakllar, uslublar yangi o'zbek adabiyotida ham tamoman o'ziga xos milliy qiyofada ustuvor o'rin tutmoqda.

Mana shu an'ana (tamoyil)lar doirasida ijod etgan mahalliy adiblar yangi o'zbek adabiyoti karvonining yetakchilariga aylandilar. Jadid adabiyotining asoschilaridan bo'lgan Behbudiy Markaziy Osiyo ijodkorlari orasida birinchi milliy dramatik asar yaratdi. Ungacha mazkur hududda na turkiy, na forsiy tilda drama janrida birorta asar yaratilmagan edi. Bu Behbudiyning adabiyotga qo'shgan eng katta hissasi bo'ldi. Bundan tashqari u o'z vatandoshlariga til jihatidan ham, shakl jihatidan ham uncha murakkab bo'lmagan, yangi sharoit va muhitga mos keladigan nasr namunalari yaratdi. Behbudiy davri uchun bu katta hodisa edi.

"Padarkush" dramasi yaratilishiga qadar Behbudiyning san'atkor sifatida ko'rsatadigan yirik asarlari ko'p emas edi⁸. O'sha vaqtgacha u ko'proq ma'rifatparvar adib, islom tarixi, geografiyasi hamda ijtimoiy hayot muammolarini yoritgan faol jurnalist va olim sifatida tanilgandi.

Behbudiy 1911-yilda yozib tugatgan "Padarkush" dramasi rus senzurasidan o'tgandan keyin, 1913-yilda nashr qilindi. Drama bir yil mobaynida Samarqandning katta "Narodniy dom" rus teatrida namoyish etildi. Mazkur teatr binosiga odam sig'may ketgan edi⁹.

Qizil Armiya tomonidan Sovet boshqaruvi o'rnatilgunga qadar Behbudiyning ushbu asari Markaziy Osiyo bo'ylab juda ko'p shaharlarda namoyish etildi. Drama qisqa fursatda bir qancha yangi sahna asarlari yaratilishiga asos bo'ldi. Shuningdek, u

⁷ Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to'ldirilgan 2-nashri. To'plovchi: B.Qosimov. Ma'naviyat, 1999. 176-bet.

⁸ Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to'ldirilgan 2-nashri. To'plovchi: B.Qosimov. Ma'naviyat, 1999. 170-bet.

⁹ Tursunov T. XX asr o'zbek teatri tarixi. Darslik-monografiya. – Toshkent: ART-PRESS, 2010. – B. 112. <https://hozir.org/ozbekiston-respublikasi-madaniyat-vazirligi-ozbekiston-davlat-v3.html?page=3>

keyingi pyesalarning sahnalashtirilishi uchun bir tajriba namunasi bo'lib ham xizmat qildi.

Zamonaviy drama adabiy janr sifatida yangi davr ma'rifatparvarlari nazdida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi kerak edi. Ular ta'lim va madaniyatda yangi usul ("usuli jadid") deb atalgan yetakchi guruh a'zolari edilar. Amalda jadidlar deb atalsa-da, aslida oddiy xalq bilan hamnafas bo'lishga harakat qilardilar. Jamiyatni isloh qilish zarurligini yaxshi bilgan Behbudiy siyosiy harakatlari samara bermagach, madaniyat va san'at orqali xalq ongini uyg'otish, uni ma'rifatga olib borish mumkin deb hisoblagan edi.

Zamonaviy drama shu davrdagi barcha hayotiy muammolar va mumtoz adabiyot an'alaridan ancha uzoq bo'lsa-da, u boshqa janrlarda yozilgan asarlardan farqli o'laroq ijro etish, ko'rsatish xususiyatiga ko'ra mahalliy aholi ko'ngliga birdek yo'l topa oldi. Mana shu muhim jihatiga ko'ra yosh o'zbek dramasi jamiyatda jiddiy islohotlar zarur bo'lib turgan bir paytda muhim ma'rifiy tarbiya vazifasini bajardi.

Qoloq konservativ ruhoniylar va mahalliy rahbarlar qarshiligiga qaramasdan XX asr boshlarida bir guruh ijodkorlar tomonidan drama janri islohotlarni amalga oshirishdagi muhim vosita sifatida tanlanishi mantiqan to'g'ri edi. Lekin, nazarimda, Markaziy Osiyodagi ilk drama bo'lgan "Padarkush" uchun bunday murakkab mavzuning tanlanishi u darajada to'g'ri yo'l emas edi.

Avvallari ham xalq orasida ko'rsatib kelingan ixcham milliy pyesalar, askiyalar, akrobatika kabi tomoshalar aslida hazil-mutoyibaga, yengil yumorga, majozga boy bo'lib, odamlarni xursand qilish, ko'nglini olishga qaratilgan edi. Bunday hazillar, askiyalar orqali ko'pgina din peshvolari tanqid qilinardi. Yangi dramaturglar esa ruhoniylarga jiddiy munosabatda bo'lar, e'tiqodli din arboblarni tanqid qilishdan qochardilar. Shunga qaramasdan qoloq kishilar zamonaviy pyesalardagi tarbiyaviy-ma'rifiy ruh tufayli Behbudiy va uning hamfikrlariga qattiq qarshilik ko'rsatishardi. Bunday munosabat nafaqat Turkistonda, balki O'rta Sharq, shuningdek, Osiyo, Ozarbayjon, Arabiston, Turkiyada yaratilgan ilk sahna asarlariga va barcha ko'rinishdagi komediyalarga nisbatan ham mavjud edi.

Behbudiyning o'zi ixcham "milliy tragediya" deb ta'riflagan bu asar Turkistonda gunoh ishlarga yo'l ochib, turli jinoyatlarga sababchi bo'layotgan ayrim kishilar qismatiga ishora qiluvchi didaktik drama edi. O'z xalqiga mansub farzandlarni o'qitish, ma'rifatli qilish, jamiyatni yuksaltirishga har jihatdan qodir bo'lishiga qaramay, bu ezgu amallarni bajarishdan bosh tortgan kishilarning qismati haqidagi bashorat edi bu asar. Muallif asar g'oyasini keskin ziddiyatlar, to'qnashuvlar, xarakterlar kurashi asosida ko'rsatishdan ko'ra dramaning ayrim qismlarida ta'lim-tarbiya orqali mamlakatni rivojlantirish mumkinligini ko'p ta'kidlagan va turkistonlik yoshlarning ilm olishdan bosh tortishlari yomon oqibatlarga olib kelishini ko'rsatishga, ya'ni didaktik tasvirga ko'p o'rin bergan.

Dramaturg asosiy e'tiborini jinoyatga, diniy urf-odatlariga xilof bo'lgan, biri ikkinchisiga bog'liq qator gunohlarga ta'kidlaydi. Ularning noxush, yomon oqibatlarini badiiy adabiyot xulosalari orqali yo'qotib bo'lmasligiga diqqatni qaratadi¹⁰.

"Padarkush" ning sahna asari sifatidagi o'ziga xos fazilati shuki, muallif zamonasining mudhish va jirkanch illatlarini ochiq namoyish etganligi bilan belgilanadi. Demak, Markaziy Osiyoda birinchi zamonaviy sahna asari "Padarkush" nomi bilan boshlandi va rivoj topdi.

Behbudiy ijtimoiy va siyosiy maqsadlarini asarga singdirish uchun qadim turkistonliklar amal qilgan adabiy o'yinlar, kinoya va qochiriqlar, ko'p ma'noli so'zlardan mahorat bilan foydalanadi. Behbudiy o'z yurtdoshlarini chinakam qotil kim va u nima uchun bu jinoyatga qo'l urgani haqida jiddiy o'ylab ko'rishga majbur qiladi.

Ma'lum bo'ladiki, "Padarkush" da aynan va ramziy ma'noda turli darajadagi o'lim sabablari metafora sifatida ko'rinadi. U oila boshlig'i (fransuzcha Patrie - patriarx - birinchi qabila va urug' boshlig'i) ning o'limini aks ettirish bilan bevosita madaniy qoloqlik tufayli asriy Turkiston inqirozga uchraganini, endi bunday yashab bo'lmasligini oldindan bashorat qiladi. Bir vaqtning o'zida muallif jamiyatning baxtsizlik, qoloqlik tomon ketishini ko'rsatish bilan birga 1900-yillarda tuzilgan Markaziy Osiyo musulmonlari jamiyatining faol a'zolari parokanda bo'lib ketganligiga ishora qiladi¹¹.

O'z davrining peshqadam adibi, birinchi dramaturgi yuqoridagi nozik mushohadalari orqali turkistonlik yoshlarga millat, jamiyat uchun nihoyatda dolzarb bo'lgan muhim va jiddiy muammolarni o'rta tashlaydi.

Ma'lum guruhlarining o'ziga ortiqcha bino qo'yishi, takabburligi bo'lajak fojialarga, qaltis oqibatlarga sabab bo'lishi mumkinligidan ogohlantiradi. Darhaqiqat, oradan ko'p o'tmay, jaholat qo'ynida qolgan Turkiston parchalanib ketdi. Hurriyat istagan Markaziy Osiyo xalqlari chinakam Mustaqillikka erishishlari uchun yana ko'p yillar bolshevizm zulmi ostida yashashga majbur bo'ldilar.

Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" va boshqa asarlarida ko'tarilgan mavzular o'z tarbiyaviy ahamiyatining kengligi, tushunarli tilda yozilganligi, asar qahramonlarining ruhiy kechinmalari yaxshi talqin qilinganligi bilan xarakterlidir. Shuni inobatga olgan holda Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zbek adabiyoti, publitsistikasi, teatri va milliy musiqasining shakllanishi hamda rivojlanishidagi o'rni alohida e'tirofga loyiq

¹⁰ Mirzaeva Z. Eduard Olvortning "Birinchisi o'zbek dramasi" maqolasi xususida // Jahon adabiyoti. – 2009. – №9. – B. 45. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/edvort-olvort-birinchi-o-zbek-dramasi>

¹¹ Rizaev Sh. Jadid ma'rifatchiligi va teatr. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Turkiston va Buxoro jadidchilik tarixiga chizgilar). – Davriy to'plam. – №1. – Toshkent: Universitet, 1999. – B. 204–207;

ekanligini unutmaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kasimova Z. O'zbek xalq teatr namoyondasi – Berdiyoshum hayoti va faoliyati haqida / Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Andijon, 2015. – B. 297–299
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to'ldirilgan 2-nashri. To'plovchi: B.Qosimov. Ma'naviyat, 1999. 187-bet.
3. Postovskiy B. A. O'zbek teatrining tarixi / Inqilob. – 1922. – №3. – B. 12–16;
4. Rahmonov Z. O'zbek teatri tarixi (XVIII asrdan XX asr avvaligacha o'zbek teatr madaniyatining taraqqiyot yo'llari). – Toshkent: Fan, 1968. – 239 b.